


Qodir Zokirov (1906-1992)



Qodir Zokirov (1906-1992)



Zokirov Qodir Zokirovich (1906.25.7, Jalolobod — 1992.9.8, Toshkent) — botanik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1956), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1956), biologiya fanlari doktori (1951), professor (1951).

SamDUni tugatgan (1933). O'rta Osiyo universiteti o'simliklar sistematikasi va geografiyasi kafedrasi dotsenti (1941—43), Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti botanika kafedrasi mudiri (1943—52), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori (1952—56), O'zbekiston qishloq xo'jaligi FA prezidenti (1957-61). Farg'on'a pedagogika instituti rektori (1963-66), 1966 yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti O'simliklar resursi bo'limi mudiri bo'lib ishlagan.

Ilmiy ishlari o'simliklar (taksonomik birliklar) sistemasi, flora, o'simliklar qoplami va o'simliklar xom ashyolarini o'rganishga oid. O'simlikshunos-sistematik sifatida kampirchopondoshlar, torondoshlar, ko'knordoshlar, hiloladoshlar va boshqa oilalarni o'rganib, yangi turkum va turlarni kashf etdi. O'zbek tilida botanika terminlarini yaratishga asos soldi.

Qodir Zokirov ko'p jildli «O'zbekiston florasi»ni tuzishda faol qatnashdi. «Ruscha-o'zbekcha botanika atamalarining qisqacha izohli lug'ati»ni (boshqa mualliflar bilan birga, 1963), keyinchalik «Botanikadan ruscha-o'zbekcha entsiklopedik lug'at»ning I jildini chop etdi (X. Jamolxonov bilan hamkorlik-da).

Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1968).

2023-09-12 20:19:33